

YOSHLARGA MEHNAT QUROLLARI TOPSHIRILDI

Oltiariq tumanida xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning bandligini ta'minlash borasida ham keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.



Bugun tumandagi "Osiyo" tantanalar majmuida "Yoshlar daftari"da turuvchi ijtimoiy himoyaga muhtoj 31 nafar yoshlar va xotin-qizlarga velotseped va dori sepish uskunalari, tikuv mashinalari, payvandalash apparatlari, noutbuk va printer hamda temir kesish uskunasi kabi mehnat qurollari tantanali ravishda topshirilib, ishsiz fuqarolarga o'zini o'zi band qilishi uchun amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Tadbirda tuman hokimi Shamsiddin Turdaliyev, sektor rahbarlari, tuman hokimi o'rinnbosarlari, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi xodimlari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.



Bu kabi olib borilayotgan ishlarning tagzamirida odamlarni rozi qilishdek ulug'vor maqsad mujassam ekanligi va xalq manfaatlari hamma narsadan ustunligi tantanada ta'kidlandi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-04 21:25:08